

SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA VA UZUM YETISHTIRISH MASALALARI.

X.Abdunazarov, X.Niyozov - Termiz Davlat Universiteti, Katta o'qituvchi,
O'zbekiston, Termiz.

Annotasiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida meva va uzum etishtirish, mevachilik va uzumchilik sohaslarining hududiy joylashishi, ushbu sohalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Agroiqlim resurslar, yer va suv resurslari, ekin maydonlari, hosildorlik, yalpi hosil, innovatsion texnologiyalar.

ISSUES OF FRUIT AND GRAPE CULTIVATION IN SURKHANDARYA REGION

X.Abdunazarov, X.Niyozov- Termiz State University, Senior Lecturer,
Uzbekistan, Termiz.

Surxondaryo viloyatida bogʻdorchilik sohasini rivojlantirishga qulay sharoitlar mavjud. Respublikamizning yagona subtropik oʻlkasi boʻlgan mintaqada vegetatsiya davri uzoq, ijobiy haroratlar yigʻindisi 5500^0 - 5900^0 ni tashkil etadi. SHu sababli, bu yerda turli xil issiqsevar subtropik mevalar yetishtiriladi. Mintaqada anjir, anor, bodom, pista, yongʻoq, uzum, xurmo, limon kabi mevalar koʻplab yetishtiriladi.

Bogʻdorchilik sohasi deganda keng maʼnodagi tushuncha boʻlib, unga mevachilik, uzumchilik, tsitrus oʻsimliklari, rezavor mevachilik, manzarali oʻsimlik bogʻlari kiradi. Mevalar va rezavor mevalar tarkibida odam organizmi uchun zarur boʻlgan shakar, organik kislotalar, oqsillar, yogʻlar, oshlovchi pektin, aromatik moddalar, kolloidlar, mineral tuzlar, fermentlar, har xil vitaminlar bor. SHuning uchun ham koʻpgina mevalar shifobaxsh xususiyatiga ega boʻlib, organizmni mustahkamlaydi va himoya qiladi.

Mustaqillik yillarida viloyatda bogʻlarga ajratilgan ekin maydonlar koʻpayib borgan. 1991 yilda viloyatda bogʻlar egallagan jami maydonlar 8,5 ming gektarni shundan hosilga kirgan maydonlar 2,9 ming gektarni tashkil etgan. 2017 yilga kelib, jami bogʻlar egallagan yer maydonlar 16,4 ming gektarni, shundan hosilga

kirgan bog‘lar 13,0 ming gektarga yetkazilgan. SHuningdek, 1991 yilda meva va rezavor yalpi hosili 10,5 ming tonnadan 2019 yilga 180,4 ming tonnagacha ko‘payib borgan. Viloyatda meva va rezavorlar yalpi hosili 2019 yilda 1991 yilga nisbatan 169,9 ming tonnaga ko‘payib, mazkur yillarda 17,1 martaga o‘shish ta‘minlangan. Bundan tashqari meva va rezavorlar hosildorligi ham o‘shib borgan.

1991 yilda hosildorlik 36,3 sentnerni tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yilda har bir gektardan olingan hosildorlik 98,1 sentnerga yetgan, bu esa bir gektar yerdan olingan hosildorlik 61,8 sentnerga ko‘paygan yoki 2,7 martaga o‘sgan. 2021yilda viloyatda bog‘lar egallagan maydonlar 51ming gektarni tashkil etgan, mazkur ekin maydonlar 1991 yilga nisbatan 6 martaga oshgan. Mazkur yilda viloyatda 172,5 ming tonna meva rezavor yetishtirilgan, hosildorlik 97,8 sentnerni tashkil etgan. 2022 yilda viloyatda 180,3 ming tonna meva rezavor hosili yetishtirilgan

Bog‘dorchilik viloyatning barcha tumanlarida rivojlantirilgan. Biroq meva yalpi hosili bo‘yicha Sariosiyo, SHerobod, Denov, Qumqo‘rg‘on tumanlari alohida ajralib turadi. 2022 yilda ushbu tumanlarga viloyatda yetishtirilgan meva yalpi hosilining 54,0 foizi to‘g‘ri kelgan.

2022 yilda viloyatda meva hosilining 58,1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida, 39,3 foizi fermer xo‘jaliklarida, 2,6 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarda yetishtirilgan.

1-jadval

Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi (bir gektardan tsentnerga)

T/r	Qishloq xo‘jaligi ekinlari	1991y	2017y	2018y	2021y	2021yilda 1991 yilga nisbatan o‘shish, %-da
1	Meva va rezavorlar	36,3	105,7	98,1	97,8	2,6m
2	Uzum	61,9	116,1	108,8	147,9	2,3m

Jadval mualliflar tomonidan Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining

“Surxanstat.uz” rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Surxondaryo viloyatida uzumchilik sohasi ham rivojlantirilgan. Viloyatda mustaqillik yillarida tokzorlar maydoni kamayib borgan. 1991 yilda viloyatda jami tokzorlar egallagan maydonlar 15,3 ming gektarni tashkil etgan. Ushbu yilda tokzorlar maydoni jami ekin maydonlarining 5,4 foizini tashkil etgan. Hosilga kirgan tokzorlar 9,9 gektarni tashkil etgan. 2017 yilga kelib jami tokzorlar maydoni 9,6 ming, shundan hosilga kirgan tokzorlar maydoni 8,6 ming gektarni tashkil etgan. 2021yilda tokzorlar egallagan maydonlar 11,1ming gektarni, shundan hosilga kirgan maydonlar 10,2 ming gektarni tashkil etgan (1,2,3-jadval).

Viloyatda shuningdek, uzum yalpi hosili o‘shib borgan. 1991 yilda viloyatda 61,8 ming tonna uzum hosili yetishtirilgan bo‘lsa, 2019 yilda bu ko‘rsatkich 112,6 ming tonnaga yetgan. Mazkur yillarda uzum hosili 50,8 ming tonna ko‘payib, 1991 yilga nisbatan o‘shish 1,8 martaga erishilgan. Bundan tashqari har bir gektardan olinadigan hosildorlik ham o‘shib borgan. 1991 yilda hosildorlik 61,9 sentnerdan 2018 yilda 108,8 sentnergacha ko‘payib borgan. Hosildorlik 1991 yilga nisbatan 46,9 sentnerga oshirilib, o‘shish ko‘rsatkichi 1,7 martani tashkil etgan. 2021yilda viloyatda 102,6 ming tonna uzum hosili yetishtirilib, har bir gektardan 147,9 sentner hosil olingan. 2022yilga kelib viloyatda 104,9 ming tonna uzum hosili yetishtirilgan. Ushbu yilda 1991yilga nisbatan 1,6 marta ko‘p uzum hosili olingan (2-jadval).

2-jadval. Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi ekinlari yalpi hosili

(ming tonna hisobida)

T/r	Qishloq xo‘jaligi ekinlari	1991y	2017y	2018y	2019y	2021y	2022y	2022yilda 1991 yilga nisbatan o‘shish %-da
1	Meva va rezavorlar	10,5	137,4	154,6	180,4	172,5	180,3	17,1
2	Uzum	61,8	100,0	91,9	112,6	102,6	104,9	1,6

Jadval mualliflar tomonidan Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining

“Surxanstat.uz” rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Uzum yetishtirish viloyatning barcha tumanlarida yo‘lga qo‘yilgan. Uzum yetishtirishda Oltinsoy, Denov, Qumqo‘rg‘on tumanlari alohida ajralib turadi. 2022 yilda mazkur tumanlarga viloyatda yetishtirilgan uzum yalpi hosilining 62,9 foizi to‘g‘ri kelgan.

2022 yilda viloyatda uzumning 42,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari xo‘jaliklarida, 53,6 foizi fermer xo‘jaliklarida, 4,1 foizi Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirildi.

Xulosa qilib aytganda so‘nggi yillarda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish bo‘yicha respublikamiz prezidentining qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Bu borada 2019 yilda Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanini meva va bog‘dorchilikka moslashtirish hamda 5000 gektar yer maydonlarida uzumzorlarni yangilash to‘g‘risida vazifalar belgilab berildi. Jumladan, Oltinsoy tumanida barpo etilgan uzumzorlarni yangi bozorbop navlarga, ya‘ni “In Vitro” texnologiyasi yordamida yetishtiriladigan sog‘lomlashtirilgan uzum ko‘chatlariga almashtirish, tomchilatib sug‘orishga o‘tishni jadallashtirish, uzumni qayta ishlash korxonalarini tashkil qilish maqsadida tuman qishloq xo‘jaligi fermerlarini birlashtirib, yirik kooperatsiyalarni tashkil qilish masalalari muhokama etildi.

SHuningdek, respublikamizda meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohalarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 martdagi “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4239-son qarori, va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11- dekabrda “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi tarmoq sohalarini tizimli rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari belgilab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoev SH.M.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz-T:O‘zbekiston 2017
- 2.Soliev A va boshqalar Mintaqaviy iqtisodiyot. –T., 2003.

- 3.Soliev A. O'zbekiston geografiyasi.-T.:Universitet, 2014, 404 b.
- 4.Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishi . –T.: “Mumtoz so'z”, 2010.
- 5.Sodiqov A.M., Nazarov SH.X.,va b. Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. Toshkent-2013,224 b.
- 6.Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi. Termiz-2018.
- 7.O'zbekiston qishloq xo'jaligi. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. 2014-2017.T:.-2018, 79 b.